



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr

VI-70-238-11-162-K/22

Uchko‘prik tuman hokimligi

**Uchko‘prik tuman bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun
jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq
stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni tasdiqlash
haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq viloyat Moliya bosh boshqarmasi va davlat soliq boshqarmasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6, 24-moddalariga xalq deputatlari Uchko‘prik tumanı Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrdagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qo‘llash bo‘yicha 06/04-34/4103-xdfu-sonli xatiga ko‘ra, quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2023-yilda 1,1 baravarga indeksasiya qilinishi kutilayotganligi;

tuman uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 26,07 mln so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv m uchun 244,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qo'llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo'yicha tavsiyalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlarini belgilash bo'yicha tuman Moliya bo'limining hamda tuman davlat soliq inspeksiyasining qo'shma taklifi maqullansin.

3.Mazkur qaror bilan:

tuman hududida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

tuman hududida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (yakka tartibdag'i tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashlari tomonidan belgilangan yer solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko'rsatib o'tilsin.

4.Tuman hokimligi (Maxsudov), tuman Moliya bo'limi (Raxmanaliyev) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev) uch kun muddatda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffisiyentlarni barcha mahalla fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlasin.

5.Xalq deputatlari tuman Kengashi bir hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni qo'llash bo'yicha muhokamalar o'tkazib, yil yakuni bo'yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini tuman soliq organiga taqdim etsinlar.

6.Xalq deputatlari tuman Kengashiga ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo'llashlari tavsiya etilsin.

7.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev) yer solig'i bo'yicha

tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

8.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘srimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

9.Mazkur Kengash qarori bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov zimmasiga yuklatilsin.

10.Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiritiladi.

**Xalq deputatlari Uchko‘priki
tumani Kengashi Rahbari**



A. Q. Asqarov

Xalq deputatlari Uchko‘prik
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-70-238-11-162-K/22-son
qaroriga
1-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha
mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va
oshiruvchi koeffisiyentlar**

ming so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (1 ga uchun)
1	Uchko‘prik t	Tinchlik MFY	1,00	26 070
2	Uchko‘prik t	Uchko‘prik MFY	1,08	28 156
3	Uchko‘prik t	Zig‘ir MFY	1,00	26 070
4	Uchko‘prik t	Yangi bog‘ MFY	1,00	26 070
5	Uchko‘prik t	Yakkatut MFY	1,00	26 070
6	Uchko‘prik t	Mergan MFY	1,00	26 070
7	Uchko‘prik t	Chorbog‘ MFY	1,00	26 070
8	Uchko‘prik t	Begmurod MFY	1,00	26 070
9	Uchko‘prik t	Mashad MFY	1,00	26 070
10	Uchko‘prik t	Puchug‘oy MFY	1,08	28 156
11	Uchko‘prik t	Sulton MFY	1,08	28 156
12	Uchko‘prik t	Tepaqo‘rg‘on MFY	1,08	28 156
13	Uchko‘prik t	Boboshbek MFY	1,08	28 156
14	Uchko‘prik t	Istiqbol MFY	1,00	26 070
15	Uchko‘prik t	Paloxon MFY	1,08	28 156
16	Uchko‘prik t	Yulg‘unzor MFY	1,00	26 070
17	Uchko‘prik t	Yangiyo‘l MFY	1,00	26 070
18	Uchko‘prik t	Oqsuv MFY	1,00	26 070
19	Uchko‘prik t	Qurbanqashqar MFY	0,90	23 463

20	Uchko‘prik t	Sariqo‘rg‘on MFY	0,90	23 463
21	Uchko‘prik t	Tojik MFY	0,90	23 463
22	Uchko‘prik t	Yangiyer MFY	1,00	26 070
23	Uchko‘prik t	Oltin vodiy MFY	1,00	26 070
24	Uchko‘prik t	Katta Kenagas MFY	1,00	26 070
25	Uchko‘prik t	Begobod MFY	1,00	26 070
26	Uchko‘prik t	Katta Qashqar MFY	1,00	26 070
27	Uchko‘prik t	Katta Qo‘shtepa MFY	1,00	26 070
28	Uchko‘prik t	Kichik Kenagas MFY	1,00	26 070
29	Uchko‘prik t	Katta Qorako‘l MFY	1,00	26 070
30	Uchko‘prik t	Olmurod MFY	1,00	26 070
31	Uchko‘prik t	To‘qsonqovun MFY	1,00	26 070
32	Uchko‘prik t	Farovon MFY	1,08	28 156
33	Uchko‘prik t	Yangiobod MFY	1,08	28 156
34	Uchko‘prik t	Yangiqishloq MFY	1,00	26 070
35	Uchko‘prik t	Turg‘oq MFY	1,00	26 070
36	Uchko‘prik t	Toshkentliguzar MFY	1,00	26 070
37	Uchko‘prik t	Baxrin MFY	1,00	26 070
38	Uchko‘prik t	Xasanqora MFY	1,00	26 070
39	Uchko‘prik t	Yakkamulla MFY	1,00	26 070
40	Uchko‘prik t	Navro‘z MFY	1,00	26 070
41	Uchko‘prik t	Sobirjon MFY	1,00	26 070
42	Uchko‘prik t	Chang MFY	0,90	23 463
43	Uchko‘prik t	Qorayantoq MFY	0,90	23 463
44	Uchko‘prik t	G‘ozi-G‘ijdon MFY	1,00	26 070
45	Uchko‘prik t	G‘ijdon MFY	1,00	26 070
46	Uchko‘prik t	Mirzaxo‘ja MFY	1,00	26 070
47	Uchko‘prik t	Qumariq MFY	1,00	26 070
48	Uchko‘prik t	Beshkapa MFY	1,00	26 070
49	Uchko‘prik t	Mehnatobod MFY	0,70	18 249
50	Uchko‘prik t	Anhor bo‘yi MFY	0,90	23 463
51	Uchko‘prik t	Soy bo‘yi MFY	0,90	23 463

52	Uchko‘prik t	Bog‘i bo‘ston MFY	0,90	23 463
53	Uchko‘prik t	Nihol MFY	0,90	23 463

Xalq deputatlari Uchko‘prik
tuman Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-70-238-11-162-K/22-son
qaroriga
2-ilova

**Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq
xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv m uchun
belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va
oshiruvchi koeffisiyentlar**

so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (1 kv uchun)
1	Uchko‘prik t	Tinchlik MFY	1,00	244,0
2	Uchko‘prik t	Uchko‘prik MFY	1,10	268,0
3	Uchko‘prik t	Zig‘ir MFY	1,00	244,0
4	Uchko‘prik t	Yangi bog‘ MFY	1,00	244,0
5	Uchko‘prik t	Yakkatut MFY	1,00	244,0
6	Uchko‘prik t	Mergan MFY	1,00	244,0
7	Uchko‘prik t	Chorbog‘ MFY	1,00	244,0
8	Uchko‘prik t	Begmurod MFY	1,00	244,0
9	Uchko‘prik t	Mashad MFY	1,00	244,0
10	Uchko‘prik t	Puchug‘oy MFY	1,10	268,0
11	Uchko‘prik t	Sulton MFY	1,10	268,0
12	Uchko‘prik t	Tepaqo‘rg‘on MFY	1,10	268,0
13	Uchko‘prik t	Boboshbek MFY	1,10	268,0
14	Uchko‘prik t	Istiqlol MFY	1,00	244,0
15	Uchko‘prik t	Paloxon MFY	1,10	268,0
16	Uchko‘prik t	Yulg‘unzor MFY	1,00	244,0
17	Uchko‘prik t	Yangiyo‘l MFY	1,00	244,0
18	Uchko‘prik t	Oqsuv MFY	1,00	244,0
19	Uchko‘prik t	Qurbanqashqar MFY	0,90	220,0
20	Uchko‘prik t	Sariqo‘rg‘on MFY	0,90	220,0

21	Uchko‘prik t	Tojik MFY	0,90	220,0
22	Uchko‘prik t	Yangiyer MFY	1,00	244,0
23	Uchko‘prik t	Oltin vodiy MFY	1,00	244,0
24	Uchko‘prik t	Katta Kenagas MFY	1,00	244,0
25	Uchko‘prik t	Begobod MFY	1,00	244,0
26	Uchko‘prik t	Katta Qashqar MFY	1,00	244,0
27	Uchko‘prik t	Katta Qo‘shtepa MFY	1,00	244,0
28	Uchko‘prik t	Kichik Kenagas MFY	1,00	244,0
29	Uchko‘prik t	Katta Qorako‘l MFY	1,00	244,0
30	Uchko‘prik t	Olmurod MFY	1,00	244,0
31	Uchko‘prik t	To‘qsonqovun MFY	1,00	244,0
32	Uchko‘prik t	Farovon MFY	1,10	268,0
33	Uchko‘prik t	Yangiobod MFY	1,10	268,0
34	Uchko‘prik t	Yangiqishloq MFY	1,00	244,0
35	Uchko‘prik t	Turg‘oq MFY	1,00	244,0
36	Uchko‘prik t	Toshkentliguzar MFY	1,00	244,0
37	Uchko‘prik t	Baxrin MFY	1,00	244,0
38	Uchko‘prik t	Xasanqora MFY	1,00	244,0
39	Uchko‘prik t	Yakkamulla MFY	1,00	244,0
40	Uchko‘prik t	Navro‘z MFY	1,00	244,0
41	Uchko‘prik t	Sobirjon MFY	1,00	244,0
42	Uchko‘prik t	Chang MFY	0,90	220,0
43	Uchko‘prik t	Qorayantoq MFY	0,90	220,0
44	Uchko‘prik t	G‘ozi-G‘ijdon MFY	1,00	244,0
45	Uchko‘prik t	G‘ijdon MFY	1,00	244,0
46	Uchko‘prik t	Mirzaxo‘ja MFY	1,00	244,0
47	Uchko‘prik t	Qumariq MFY	1,00	244,0
48	Uchko‘prik t	Beshkapa MFY	1,00	244,0
49	Uchko‘prik t	Mehnatobod MFY	0,70	171,0
50	Uchko‘prik t	Anhor bo‘yi MFY	0,85	207,0
51	Uchko‘prik t	Soy bo‘yi MFY	0,85	207,0
52	Uchko‘prik t	Bog‘i bo‘ston MFY	0,85	207,0
53	Uchko‘prik t	Nihol MFY	0,85	207,0